

VOLUME II | ISSUE 2 | FEBRUARY

2024

Journal of Pedagogical and Psychological Studies

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ISSN: 2181-4066



Available online at www.imfaktor.com

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 2-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-2

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-2

ТОШКЕНТ - 2024

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2024-2>

Бош муҳаррир:

Нишонова З.

– психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов Ойбек.

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

Таҳририят аъзолари:

1. Юсупова Хабиба Ирискуловна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
2. Олимов Лазиз Ярашович – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
3. Элов Зиёдулло Сатторович – психология фанлари доктори, доцент
4. Ганжиев Феруз Фурқатович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
5. Мусаева Мухаббат Эшбаевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
6. Умаров Баҳром Норбоевич – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
7. Орипова Раънохон Иброхимовна – педагогика фанлари номзоди, доцент
8. Ўринова Феруза Ўлжаевна – педагогика фанлари номзоди, доцент
9. Ниёзова Лутфия Худайбергановна – дефектолог - эксперт
10. Салиева Дилором Абдуллаевна – психология фанлари номзоди
11. Останов Шухрат Шарифович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
12. Рустамов Шавкат Шухратович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
13. Халлокова Максудахон Эргашевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
14. Исмаилова Раъно Нураевна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
15. Саримова Дилдора Соаталиевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
16. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
17. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
18. Худайберганов Шухрат Шавкат ўғли – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
19. Исматова Дилафруз Тўймуратовна – психология ф.б.ф.д. (PhD)
20. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
21. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д., (PhD)
22. Ўринова Озодахон Ўлжаевна – педагогика ф.б.ф.д., (PhD)
23. Рўзиёв Умар Музафарович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
24. Останов Жасур Шопиржонович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
25. Лола Камоловна Илиева (Бахриддинова) – педагогика фанлари номзоди, доцент
26. Муродова Дурдонахон Райимжон қизи – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

“Педагогик ва психологик тадқиқотлар” журнали 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 8.2 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор
24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

AMONOVA Dilsora Akmal qizi
Osiyo xalqaro universiteti
magistranti

Elov Ziyodullo Sattorovich
Buxoro davlat universiteti dotsenti
Psixologiya fanlari doktori (DSc)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10653088>

DEVIANT XULQ-ATVORNING PSIXODINAMIK ASPEKTLARI

ANNOTATSIYA

Maqolada deviant xulq-atvorli o'smirlarda psixodinamik aspekt ongostining ta'siri ekanligi, shunindek, Z.Freyd qarashlari bo'yicha super egoning shaxsdagi ahamiyati, shaxsdagi norasolik hissi kabi masalalar haqida so'z yuritiladi. Freyd ta'limoti va Alderning individual psixologiyasida shaxsning ustunlikka erishish maqsadi atroflicha yoritilgan bo'lib, bunda deviant xulq masalasiga ularning yondashuvlari ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: psixodinamika, aspekt, xarakter, xulq-atvor, norasolik, ego, id, super ego, ongsizlik, shaxs, buzilish, jamiyat, bo'ysindirish, kamsitish, diskreditatsiya, muhabbat, qo'rquv

ПСИХОДИНАМИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В статье говорится о таких вопросах, как психодинамические аспекты Эго у подростков с девиантным поведением, значимость Супер-Эго в личности, а также ощущение неадекватности личности по взглядам З. Фрейда. В теории Фрейда и индивидуальной психологии Альдера подробно освещается цель человека добиться превосходства, научно анализируются их подходы к вопросу девиантного поведения.

Ключевые слова: психодинамика, аспект, характер, поведение, дефицит, Эго, Ид, Супер-Эго, бессознательное, личность, расстройство, общество, подчинение, дискриминация, дискредитация, любовь, страх.

PSYCHODYNAMIC ASPECTS OF DEVIANT BEHAVIOR

ANNOTATION

The article talks about such issues as the psychodynamic aspects of the Ego in adolescents with deviant behavior, the significance of the Super-Ego in the individual, as well as the feeling of inadequacy of the individual according to the views of S. Freud. In Freud's theory and Alder's individual psychology, a person's goal to achieve superiority is covered in detail, and their approaches to the issue of deviant behavior are scientifically analyzed.

Key words: psychodynamics, aspect, character, behavior, deficit, Ego, Id, Super-Ego, unconscious, personality, disorder, society, submission, discrimination, discredit, love, fear.

Deviantlik har doim psixologlar, shifokorlar, pyedagoglar, huquqni himoyalovchi organlar xodimlari, sotsiologlar, faylasuflarda jonli qiziqish uygʻotib kelgan. Ogʻishgan xulq mavzusi sohalararo va munozarali xaraktyerga ega. Atamaning “ijtimoiy meʼyor” tushunchasi bilan payvasta ekanligi muammoni koʻp marotaba murakkablashtiradi, chunki meʼyorning chyegaralari oʻta shartli, insonda esa barcha koʻrsatkichlar boʻyicha absolyut meʼyorning oʻzi mavjud emas. Yondoshuvlarning turli-tumanligi shaxs xulq ini ogʻishganligini tashhis qilish, uni profilaktikalash va ijtimoiy-psixologik yordam koʻrsatish davomida bartaraf etish kabi amaliy vazifalarni yechishda ham koʻzga tashlanadi.

Hozirgi kunda psixologiya shaxsni insonning jamiyatdagi hayotida shakllanadigan ijtimoiy-psixologik hosila sifatida tushuntiradi. Odam ijtimoiy mavjudot sifatida boshqa odamlar bilan munosabatlarga kirishganida va bu munosabatlar uning shaxsini shakllantiruvchi hal qiluvchi omilga aylanganida, u yangi sifatlarga ega boʻladi.

Maʼlumki, maxsus adabiyotlarda “ogʻishgan xulq” atamasi koʻpincha deviant axloq (deviatio – lotin tilida ogʻishgan) sinonimi bilan almashtiriladi. Kelgusida biz oʻzaro bir-birining oʻrnini toʻldiruvchi sifatida har ikkala atamani qoʻllaymiz - “ogʻishgan”, “deviant”, bunda birinchi atama aniq va oʻrganilgan boʻlgani sababli afzal koʻriladi.

Oʻrganilayotgan tushunchaning yaqqol koʻrinib turgan murakkabligiga hammadan avval uning fanlararo xaraktyeri sababdir. Hozirgi vaqtda atamadan ikki asosiy mazmunda foydalaniladi. Deviant axloq “rasman oʻrnatilgan yoki haqiqatda ushbu jamiyatda yuzaga kelgan meʼyorlarga mos kyelmaydigan muomala, inson harakati” [2] maʼnosida psixologiya, pedagogika va psixiatriyaning predmyeti sifatida yuzaga chiqadi.

“Inson faoliyatining ommaviy va mustahkam shakllariga nisbatan ifodalanuvchi va rasman oʻrnatilgan yoki ushbu jamiyatda haqiqatda mavjud boʻlgan meʼyorlar va umidlarga mos tushuvchi ijtimoiy koʻrinish” [2] maʼnosida u sotsiologiya, huquq, ijtimoiy psixologiyaning predmyeti hisoblanadi. Ushbu ishda biz ogʻishgan xulqni birinchi aspektidagi afzallikda – individual faollikning koʻrinishi sifatida koʻrib chiqamiz.

Deviant axloqning yosh va jinsiy farqlanishi garchi asosiy mavzularni koʻrib chiqishda inobatga olinsa-da, bizning taʼlimotimiz predmyeti hisoblanadi. Shuni taʼkidlash zarurki, “ogʻishgan xulq” atamasini 5 yoshdan kichik boʻlmagan bolalarga nisbatan qoʻllash mumkin, qatʼiy maʼnoda esa – 9 yoshdan keyin 5 yoshdan oldin bolaning ongida ijtimoiy meʼyorlar haqidagi zaruriy tasavvurlar boʻlmaydi, oʻzini-oʻzi nazorat qilish esa kattalar yordamida amalga oshiriladi. Faqat 9-10 yoshidagina bolada ijtimoiy meʼyorlarga mustaqil rioya qilish qobiliyatining mavjudligi haqida gapirish mumkin. Agar 5 yoshdan kichik boʻlgan bolalarda axloqi yosh meʼyoridan ahamiyatli tarzda ogʻsa, bunda uni yetilmaganlikning, asabiy reaksiya yoki psixik rivojlanish buzilishining bir koʻrinishi sifatida koʻrib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Psixoanaliz taʼlimotining vazifalaridan biri – ongsizlik sohasidagi "kompleks"larni aniqlash va ularni anglashga yordamlashishdan iborat. Ushbu taʼlimot namoyandalari shaxsning ichki ixtiloflarini ochib berish uchun "Edip kompleksi"ni yaratdilar. Ularning mulohazasicha, instinktiv mayllar oʻz quvvati va faolligini saqlagan holda insoniyat madaniyati va shaxs faoliyati mahsulining har xil shakllariga kirib ("sublimatsiyalashib"), ongsizlik holatidan turib inson xulq-atvorini boshqarishda ishtirok qilaveradi. Psixoanalizda ongsizlik bilan onglilik oʻrtasidagi qaramaqarshi munosabatni mutlaqlashtirish uchraydi, buning natijasida ularning oʻzaro bir-birini toʻldirish imkoniyati rad qilinadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oʻzbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 2021-yil 18-yanvardagi 23-son qarori hamda mazkur boshqa meʼyoriy huquqiy hujjatlarda yoshlarga keng imkoniyatlar berishga oid belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada qulayliklar yaratilmoqda. Ammo, bunday keng imkoniyatlar makonida hamma yoshlarimiz ham bir xil foydalana olmaydi. Xoʻsh, mavjud muammo nimada?

Yoshlarimiz orasida xulqida og‘ishlar kuzatilgan, jinoyatchilik yo‘liga kirib qolgan, bugun turli axloq tuzatish kalonnalarida bo‘lgan bolalar mavjud. Bunday ahvolga tushib qolish sabablari turlicha. Shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari, tashqi va ijtimoiy omillar, psixik holatlari va hokazo. Tadqiqotimizning kichik bir ko‘rinishi bo‘lmish mazkur maqolada deviant bolalar psixikasi va psixodinamik aspektlari haqida so‘z yuritiladi.

Aspekt (*lotincha* aspectus – tur) – hodisa, tushuncha, istiqbol qarab chiqiladigan muayyan nuqta nazar ma’nolarga ega.

Psixoanaliz (psixo... va analiz) — psixoterapiya metodi va Zigmund Freyd tomonidan rivojlantirilgan psixologik ta’limot. Ongsiz psixik jarayonlar va motivatsiyani diqqat markaziga qo‘yadi. Inson xulqi asosini lazzat olish (libido)ga nisbatan, ayniqsa, ilk bolalikda paydo bo‘lgan seksual (jinsiy) mayl tashkil qiladi degan g‘oyani ilgari surib, odam xulqidagi ijtimoiylik, onglilikni inkor etadi. Ongdan unga muvofiq kelmaydigan (asosan, seksual) mayllar va ruhiy kechinmalarni siqib chiqarish psixoanalizda har xil nevrozlar va turli patologik hodisalar (unutish, yanglish harakatlar va hokazolar)ning asosiy manbai sifatida qaraladi.

Psixoanaliz nazariyasiga ko‘ra, 3 xil psixik instansiyalar hukm surishi mumkin: g‘ayrisuuuriy "U" (id) — mayl doirasi; turli himoya vositalari bilan "U"ning impulyelarini cheklovchi shuuuriy "Men" (Ego); "O‘ta-Men" (Super-Ego) - ijtimoiy taqiqlar, qonun tusiga kirgan majbuuriy tartib-qoidalar. Freyding fikricha, "Men" reallik tamoyiliga asoslangan holda inson psixikasida harakatlanuvchi qarama-qarshi kuchlarni muvofiqqlashtirish vazifasini bajaradi. Inson o‘zining qadimgi ajdodlaridan irsiy yo‘l bilan o‘tgan instinktiv mayllarning namoyon bo‘lishi tufayli faoldir. Instinktiv mayllar dastavval jinsiy instinkt va o‘zini himoya qilishga intilish instinkti tarzida yuzaga keladi. Lekin jamiyat shaxsni ko‘p jihatdan cheklab qo‘yadi, uning instinktlari va mayllari "senzura"dan o‘tkaziladi. Buning natijasida o‘zining aksariyat instinktlari va mayllarini to‘xtatish, taqiqlashga majbur bo‘ladi. Instinktiv mayllar uning shaxsiyatiga tegadigan ruhiy holat sifatida ongli hayotidan siqib chiqariladi, lekin yo‘qolib ketmaydi, faqat ongsizlik sohasiga o‘tkazib yuboriladi, xolos.

Psixodinamika - inson psixikasini boshqaruvchi kuchlarning muvofiqlashuvi va kurashi. Shaxs kuzatishi mumkin bo‘lgan aqliy jarayonlar tashqi omillar bilan emas, balki ichki harakatlantiruvchi kuchlarning dinamikasi bilan boshqariladi. Z.Freyd inson hayotida ong va ongsiz tushunchalarini ajratdi. Ongsiz - o‘ziga to‘siq tufayli ong uchun noqulayliklarni qamrab olgan (xususan ongsiz) va osongina ongsizlikdan onga ko‘chib oladigan (ongoldi). Ongli qarash tashqi va ichki turtkilarni his-tuyg‘uday qabul qilish. ularni nutq yordamida ongli qabul qilish markazi sifatida keladi. *Id\ Ego va SuperEgo*. Shaxsning psixologik farovonligi ushbu uchta tuzilmaning samarali faoliyatiga bogliq. *Id* - nisbatan okzgarimas va to‘liq ongsiz shaklda bo‘ladi, ammo uning borligi va hukmi — fikrlar, harakatlar va emotsiya derivatlaridan ajralib turadi. Ego - bu bir oila doirasida hayot talablariga moslashish, hal etish yo‘llarini topish, Id intilishlarini boshqarish uchun funksiyalar nomi. Ego - butun hayot davomida rivojlanib boradi, ayniqsa tezkor bolalikning ilk davrlarida rivojlanadi. Ego reallik prinsipiga muvofiq faoliyat yuritadi va ikkinchi fikrlash jarayonining negizi hisoblanadi [1, 2].

Odatda, *Ego Id-ga* nisbatan zaifroq, kuchsizroq bolib, shuning uchun Ego Id tilaklarini harakatlarga aylantiradi, Id tilaklarini o‘z tilaklari sifatida namoyon etadi. Id va Ego tushunchalaridan tashqari, ota-ona ta’sirining qoldiq aksi bo‘lmish psixik aparatining qolgan qismi uchun Super Ego tushunchasi kiritilgan. Z.Freyd fikricha, Super Egoning asosiy vazifasi Id talablarini Egoga ruhiy ta’sir o‘tkazish orqali bartaraf etish. Ushbu markazning asosiy funksiyalari: ideal, o‘zini kuzatish va vijdon. Ichki standartlar va taqiqlar negizida, albatta, ota-onaning ibratini turadi [2].

Bola boshidan, muhabbatni yo‘qotish qo‘rquvi tufayli yoki tashqi, ota-ona avtoriteti tomonidan agressiya xavfi tufayli o‘zini chegaralashga kelib qoladi. Natijada esa, u Super Ego - ichki avtoritet oldidagi qo‘rqish hissidan kelib chiqib, harakatlana boshlaydi. Vijdonga qarshi qilingan harakatlar, jazoga muhtojlik, gunohkorlik yoki bocshlik hislarini paydo bo‘lishiga olib keladi. Shaxsiy muammolarni, haddan tashqari qat’iy Super Ego ning namoyishi, uning to‘liq shakllanmaganligining natijasi bilan tenglashtirish mumkin.

Tugʻilgan chogʻidan boshlab, uzoq vaqt davomida bola tobe va yordamga muhtoj ahvolda boʻladi, natijada, obyektни yoʻqotish qoʻrqishi bilan bogʻliq xavf sezilishi paydo boʻladi (katta kishisini yoʻqotish). Bu qoʻrqish esa oʻz navbatida sevimli boʻlishga muhtojlikni olib keladi. Bolaning “Ego”si nisbatan zaif, kuchsiz boʻladi, ushbu bosqichda obyektни yoʻqotish yoki muhabbatni yoʻqotish, soʻnggi bosqichlarda saqlanib qoluvchi, xavotir paydo boʻlishiga olib keladi. Keyinchalik xavotirning asosiy manbaalari (fallik bosqichida) kastratsiya qoʻrquvi va Super Ego oldidagi qoʻrquv paydo boʻladi. Muhofaza mexanizmlari ongsiz tarzda ishlaydi va qiynchiliklarni yengishning individual usuliga aylanib qoladi.

Insonda qanday muhofaza turlari ustivorlik qilishi quyidagi omillar hamkorligiga bogʻliq:

- 1) bolaning tugʻma temperamenti;
- 2) ilk bolalik davrida kechirgan stresslar mazmuni;
- 3) ota-ona va boshqa ahamiyatli insonlarning himoya usullari;
- 4) himoya qilish tajribasini hayotda qoʻllash[2, 4, 5].

Buzilgan (deviant) xulq-atvor holatida norasolik kompleksi noadekvat hayotiy yoʻriqmalar va rivojlanmagan ijtimoiy hissiyoti bilan birlashadi. Anomal shaxsda ustivor hayot yoʻnalishi bu ustivorlikka erishish intilishidir. Bu hissiyot shu darajada rivojlanganki, jamoa hissiyotining paydo boʻlishi va rivojlanishiga katta toʻsqinlik qiladi. Bunday inson odamlarni oʻzining shaxsiy manfaatlariga yetish vositasi sifatida qabul qiladi, shuningdek, jamiyatga dushman kuchi sifatida qaraydi, boshqalar bilan hamkorlik qilishni xohlamaydi va qilmaydi. Ushbu ziddiyat jamiyatning turli talablariga qarshi chiqish, gipertroflashgan reaksiyasida namoyon boʻladi: boshqalari hurmat qilish, haqiqatni aytish, bilim olish va mehnat qilish, boshqalar haq ekanligini tan olish, minnatdor boʻlmoq.

Ustivorlik gʻoyasi boshqalarni – boʻysindirish, kamsitish va diskreditatsiya harakatlariga undaydi. Natijada shaxsning xulq-atvorini va umuman hayot yoʻlini aniqlovchi, shaxsning mustahkam negativ qirralarini shakllantiradi - sabrsizlik, hasad, manmanlik, shubha uygʻotish va boshqalarni aytish mumkin. Yuqorida Freyd nazariyasini koʻrib chiqdik, shuni aytish kerakki, tarbiyaning toʻgʻri tashkil qilinishi va qoʻrquvni yengish bola ruhiyatiga yaxshi taʻsir qiladi va ongositing tajovuzkorligini pasaytiradi [6].

Alfred Adlarning (1878-1937) individual psixologiyasi – deviant xulq-atvorda koʻpgina shakllarning psixologik sabablarini tushunib anglashga koʻmaklashadi. A.Adler, asosiy hayotiy maqsadini - individual rivojlanishning aniqlovchi va asosiy omili deb hisoblagan. Umumiy koʻrinishda - boshqalar ustidan ustivorlikka yetish maqsadi [2, 7].

Uning aniq maqsadi nihoyatda xilma xil: hokimiyatga, goʻzallikka, boylikka, kuchga, mashhurlikka, bilimdonlikka intilish va hokazo. Ustivorlikka yetish maqsadi norasolik hissiyotiga reaksiya sifatida, hayotning ilk davrida paydo boʻladi, u esa oʻz navbatida zaifligining kechinmalaridan kelib chiqadi. Zaiflik norasolik hissi sifatida boshidan oʻtadi. Adler fikricha, norasolik hissi dastavval 4-5 yoshida paydo boʻladi-yu, uni ikkita asosiy omil kuchaytiradi. Birinchidan - bular tugʻma nuqsonlar (sogʻlik yoʻqligi, jismoniy nuqsonlar, haddan tashqari past boʻyi). Ikkinchidan - oilada bolaning notoʻgʻri tarbiyasi (meʼyoridan ortiq erkalatish, muhabbat yetmasligi). Norasolik hissiyoti, bola tomonidan muhit talablarini bajara olishiga nisbatan qarama-qarshidir. Insonning shaxsiy yutuqlari odamlarning ijtimoiy hayotini umuman yaxshilashga xizmat qiladi. Norasolik hissiyotini oʻrnini bosish uchun insonlar turli usullardan foydalanidalar. Baʼzi birlari boshqalarga bosim oʻtkazish yoki zoʻravonlikni qoʻllaydilar, boshqalari ruxsat etilgan usullardan foydalanidalar – yutuqqa erishish hokimlik, guruhlarga birlashish [6].

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, Freyd va Adler oʻz qarashlarida nafsning ustunligi va ustivorlik qilish kabi insonga xos yomon illatlarning yuqori oʻrinda turishi va doim ustun kelishi yoki kelmasligi shaxsning avvalo tarbiyasiga, xulqida va individualligiga bogʻliqligi yana bir isbotlagan. Xulq ogʻishining koʻpgina sabablari keltirib oʻtilgan boʻlsa ham asosiysi, super egoning taʼsiri shaxsda yuksak boʻlsa, ruhiy tarbiya boʻlsa bugun jamiyatimizda deviant tamgʻani olgan yoshlar kam boʻlgan boʻlar edi.

ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES.

1. D.Sh.Berdiyeva, Z.S.Elov. [Psychological reasons for suicide motivation in adolescents with deviant behavior](#). ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES SCIENTIFIC JOURNAL. 2022 1003-1009
2. Z.M.Maxmudova, Z.SElov, L.YOlimov., [Deviant xulq-atvor psixologiyasi](#). Darslik. Buxoro 2022 375-b
3. Z.S. Elov. [Deviant xulq-atvorli o'smirlar shaxsida ruhiyjinsiy buzilishlar ijtimoiy psixologik muammo sifatida](#). Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил № 7) 235-240
4. З.С.Элов. [Девиант хулқ-атворли ўсмирларда суицидал ахлоқ психологияси](#). Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy metodik jurnal (2023 йил № 6) 237-246
5. З.С.Элов. [Ўсмир шахсида деликвент ахлоқ–девиант хулқ-атвор шакли сифатида](#). Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy metodik jurnal. 2023 336-338
6. З.С.Элов. [Девиант хулқ–атворли ўсмирларда кузатиладиган психологик ўзгаришларининг ёш билан боғлиқ хусусиятлари \(Вояга етмаганларга ижтимоий химоя кўрсатиш маркази тарбияланувчилари мисолида\)](#). PEDAGOGİK MAHORAT. Ilmiy-nazariy jurnal. 2022
7. Z.S. Elov. [Voyaga yetmaganlarga sudga oid psixologik ekspertizasini o'tkazilishining psixologik xususiyatlari](#). ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР 1 (№1), 9-14

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 2-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-2

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-2

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz